

Zargar To'raxo'ja hayhotdek hovlida yolg'iz qoldi, ikki kundan buyon o'g'li Qodirxo'jadan darkar yo'q. Yotib-turib o'ylosa-da, o'tgan taloto'pga aqli lol, bu xil jangu jadal, osmondan ajal yoqqanini hech tasavvuriga sig'dirolmashdi. Xudoning yuborgan balosi, ofat desangiz qirg'inni hukmdor Olimxonning dushmanlari boshlab keldi. Ha, shu tuproqda unib-o'sgan Buxoroning tagli-tugli aslzoda yigitlaridan bo'l mish bir guruh ilmparvar aqlirasolarning bilib-bilmay bosgan qadamlari shaharni qonga botirdi, xarob qildi. Chol talangan mol-dunyosiga achinmadi, ochiqdan-ochiq zo'ravonlik, yong'in yuragini o'rtadi. Na chora, kelgan balo bir uningmas, butun Buxoroni yondirdi. Shu topda yagona ilinji o'g'li oilasini ishonchli, tayinli joyga omonat qoldirib, Buxoroga eson-omon qaytsin.

Qo'shnilaridan hol so'rashning imkoniy yo'q, ikki kundirki, bosqinchi to'dani aytmaganda, na birov "Holing nechuk?", deb kelmadi. Bu qanday jazoki, hafta ichida butun boshli mahallalar, ahil jamoa, qavm bir-biriga yot begona. Asl kim, noasl kim bilmaysan, xudo bergen jon omonat, halol mulking bolshavoy degan qaroqchilar oyog'i ostida xor.

Chol bo'g'ilib hovliga chikdi, havo yetishmay hansirab nafas oldi. Supa o'rtasidagi singan hassasiga ko'zi tushib xo'rliqi keldi.

Talonchi guruhga tayinli qarshilik ko'rsatmasa-da, boriga qanoat qilmagan shaytonlar "Ko'mgan tillangni topib ber" deb savalashdi. U majhul bir tarzda turarkan, Ollohdan yupanch istagandek osmonga qaradi, ko'zlarini tinib hech narsani ko'rmadi. Shu holda biroz turgach darvozaga ko'zi tushdi: "O', bachchag'arlar, dedi u, olarini olib yana darvozani yopib ketishibdi-ya, qizil askar degani ishni puxta qilarkan..."

Chol darvozani lang ohib qo'yarkan, "Talangan uyning nimasini bekitay, baribir, hammasiga Ollo shohidku", deya o'yladi.

Xayol bilan sekin ko'chaga chiqdi-yu bexos to'xtadi, yuragini vahm bosib ortiga qaytdi. Buxoro Buxoroga o'xshamasdi...

Shahar tepasida achchiq tutun, chang qotib qolgandi. Kecha-kunduz davom etgan otishma, yong'in, bomba yog'dirishdan so'ng Buxoro asl qiyofasini yo'qotdi. Yerdanmi, ko'kdanmi go'yo jahannam dahshatini namoyon etgan bir balo Buxoroga jazo yog'dirdi: yuz yillar avval qad ko'targan Katta minora yarador, madrasalarining toqi teshik, aziz avliyolar qabri yerparchin, Amir Sayid Olimxon xazinasi o'lja, shahar ahli sarosima va dahshat ichra chorasiz...

Shunga qaramay Amir lashkarlari to'rt kecha-kunduz dashmanga qarshi kurashdi. Talofot va xarobaliklar haddan ortib, shahar fuqarolari jon saqlash umidida mol-dunyosini tashlaganicha turli tomonga qochishdi.

Sayid Olimxonning ichki va tashqi harb quvvatidan xabardor Frunze ketma-ket hamlalar uyuştirib Buxoroni ololmagach, Chorjo'yga Polsha frontidan chaqirib, hozirlab qo'yilgan maxsus samolyotlar dastasini jangga kiritishga buyruq berdi. Butun kun bo'yи erta tongdan to kech ko'z ko'rguncha shahar bomba ostida qoldi. Amir Olimxonning Buxoroni tashlab chiqishdan boshqa iloji qolmadi. Ming tzqqiz yuz yigirmanchi yil chorshanba jangning to'rtinchli kuni Olimxon shohlik bog'i sanalmish Sitorayi Mohi Xossalidan chiqib G'ijduvon tumaniga yo'l oldi. Shu kundan boshlab mang'itlar sulolasining yettinchi va oxirgi amiri Olimxonning qadami Buxoroyi Sharifdan butkul uzildi...

Hukmdorsiz Buxoro yot qo'llar ostida qo'rqinchli tus olib, huvillab qoldi. Egasiz uylar, sohibsiz do'konlarning eshigi ochiq yotar, mol-mulk talangan, sochilgan... Kunduz ko'chalarda odam siyrak, barcha fuqaro - hunar ahlidan gadolargacha bekinib olib, takdirdan panoh izlar, o'tgan dovul ta'sirida guyo qo'l-oyog'idan, hushidan ajragandek karaxt edi.

Avvaliga Buxoroning har bir g'ishti qizil askarlarning ko'ziga antiqa o'lja bo'lib ko'rindi. Amir xazinasi siymu zar, misdan yasalgan idishlar, ipak matohlar, kumushu marvarid, oltinlarni vagonlarga tashiyverib, nihoyat, ularning bir muddat ko'zi to'ygandek, uncha-buncha narsani nazar-pisand qilmay qo'yishdi.

Frunze buyrug'iha ko'ra zdulik bilan maxsus guruh tuzildi. Kazaklardan iborat saralangan askarlar "inqilob"ning to'rtinchli kuni Buxoro xonadonlaridan tillo yig'ish mavsumini boshlab berdilar. Eshiklarini tanbalab, Ollohdan inoyat kutib yotgan qariyalar, ilojsiz bandalar, Buxoroga qattiq bog'langan fuqarolar har bir damni tahlikada o'tkazishar, molu jon qaroqchilarini tunda xonadonlarga bostirib kirishar, uy egalarini qiyab-qaqshatib tilla talab qilishardi. Shaharda bu zulmkor to'daning oldini to'sadigan mard topilmadi. Mahallalar ahli har erta yuzi timdalangan, sochi yulungan, boshi bog'liq qo'ni-qo'shni sige ko'zi tushib, sirdan ogoh bular, hech kim bir-biriga churq etmay navbat kutar, ertaga istalgan vaqtida o'lpon yig'uvchi Frunze jallodlari uyiga bostirib kirishidan xavotirda, yurak hovuchlab chora izlashardi. Chora esa topilmas, zulmning eshigi ochilgan, yeb to'ymas, talab to'ymas tilloxo'rlearning to'ydimi yo'q edi.

Amir ketganining ertasi tunda Zargar mahallalik o'n besh xonadonni tong otguncha qiyashdi. Oиласини Buxoro atrofidagi qishloqlardan biriga yashirib qaytgan Qodirxo'ja qaysar otasidan xabar olgani uyiga kirdi. Chol o'lsam, o'ligim hovlimdan chiqsin, mol-dunyo deb Buxorodan kechmayman, mening qochadigan gunohim yo'q, deb hovlida yolg'iz qolgan edi. Ertalab o'g'li kirib kelganida u oppoq surp ko'yak-ishtonda supa o'rtasida bosh yalang, singan hassasini bag'riga bosganicha haykaldek qotib, savdoysi yanglig' turardi. G'isht yotqizilgan keng supa kovlab tashlangan, xonalar ag'dar-to'ntar edi.

Ota-o'g'il ikkisi bir-biriga tikilib qolishdi, ko'zlar dardlashdi hol aytidi, hol so'radi:

"Otajon, olib ketay, qishloqqa yashiray, dedim, ko'nma dingiz, axir bu ne ko'rgulik?"

"O'g'lim, senga aytdimku, mening yashirinadigan, qochadigan gunohim yo'q. Topgan mol-mulkim halol, o'zimniki... Bariga chidayman, boshimga ne tushsa, Ollohdan deb bilaman. Lekin sendan bir so'rog'im bor. Senlar ishongan, yurtni buzib, yurt tuzaman deganlar qani bugun? Nega ular jim? Yurtim, dinim, amirim deb jangga kirgan lashkarlarni xuni kammidi, nechun ular jonsiz minorani to'pga tutdilar, Buxoro darvozalarini yondirdilar. Darvozalar yonmadi, mening jonim yondi, masjidlar qulamadi, men quladim. Otang moliga emas, joniga kuyadi, o'g'lim, Qodirxo'ja!?" cholning ko'zlaridan yosh dumaladi.

"Otajon, ne qil deysiz?! Shu topda qo'limdan keladigani qochish, yo'qsa, rozilik bering, Amir qo'riqchilariga yetib olay, ul zoti oliy xizmatini qismat deb bilay... Yurt buzib, yurt so'raydigilarga o'g'lingiz Qodirxo'ja ishonmagan, ularning xizmatidan hazar qilganman, ammo boshimda bir ulkan gunoh bordirki, har qancha yuvsada ketmaydi..."

"Bilaman o'g'lim, bilaman, Siz chetda turdingiz, qon-qardosh birodaringiz Fayzullaga qarshi chiqmadingiz, Amirni ham yoqlamadingiz shunday emasmi? Bilib qo'ying, o'zini tanigan, hurmat qilgan odam uchun o'rtada turish qiyin. Endi qismatingiz og'ir kechadi.

Sizlar doim "Jabr-zulm ko'kka yetdi", deb so'zlashni xush ko'rardinglar. Endichi, qo'ni-qo'shni, xeshu taboring holidan xabar oling, o'z ko'zingiz bilan ko'ring ularni, shoyadki haqiqiy zulm nimaligini anglasangiz. Shuni unutmangki, bizlarning xudodan bo'lak sig'inadigan, Buxorodan bo'lak topinadigan joyimiz yo'q!"

Qodirxo'ja asta borib otasini ozorsiz bag'riga bosdi. Ketma-ket zarbalarga xuddi Katta minoradek qaddini tutib bergen bu chol Zargar mahallaning davlatli, diyonatli, obro'li oqsoqoli hisoblanar, u yakkayu yagona o'g'li Qodirxo'ja bilan faxrlanar edi.

To'raxo'janing asli kasbi zargarlik, so'ngroq savdo bilan shug'ullandi. O'g'li Qodirxo'ja savodli, madrasa ko'rgan yigit. U yaqin besh-olti yildirki, otasining yordamchisi, qariyadan butkul hisob-kitobu ish yuritishni qabul qilib olgan tadbirkor savdogar.

Buxoroning hur fikrli jadidlari, savdo ahli, ayniqsa, atrof tumanlardagi o'ziga to'q xonadonlardan ko'plab yaqinlar orttirgan mulohazakor Qodirxo'ja har qancha o'yamasin, qizil qo'shining istilosini anglayolmasdi. Nechun bu tartib vayron etish, yondirish, shafqatsiz qirish, talash... Yo'q, inqilob degani bu taxlit bo'lmas, zo'ravonlik bu, bosqinchilik! Yurtparvar millat kishilar nechun bu qirg'in-barotga yo'l qo'yidilar, nega xalqning bor-yo'g'i bilan hisoblashmay o'lpon yig'adilar?

Qodirxo'ja otasining qo'ltig'idan suyab ayvon zinasiga yetakladi. Chol bir zina bosib-bosmay to'xtadi:

Millat qayg'usida Buxoroga qo'shin chorlagan birodalarlingiz qayda, nechun indamaysiz, o'g'lim?

Qodirxo'ja tushundi, otasi "Yosh buxoroliklar"ga sha'ma qilyapti. Darvoqe, nechun do'sti Fayzulla buning kabi talonga beparvo, jimgina kuzatib turibdi. Shaharni kofirga to'ldirib, o'zi qayqqqa g'oyib bo'ldi?

Otajon, o'zingizga ma'lum, uch kundirki oilamiz tashvishi bilan bandman. Buxoro egasiz qoldi. Egasiz yurtni talashar ekan. Boshi berk chorasisz ko'chaga kirib qoldik, kimga ishonishni bilmaysan kishi.

O'zingizga ishoning, Qodirxo'ja, yurtning egasi bor, bugundir, ertadir buzg'unchilar, yurt talashganlar jazosini topadi, o'zi boshlab kelgan yarog' boshini yeydi. Yurt bosib baraka topish mumkindir, ammo shuni bilingki, yurt sotib baraka topmaysiz. Moldanku kechdingiz, endi jondan kechib bo'lsa-da, birodaringiz Fayzullaga uchrang, sizga aytgan omonat so'zimni unga yetkazing. Qo'lidan kelsa itlarini bog'lasin, xalqqa jabr bo'ldi, xo'o'b jabr bo'ldi, talagani yetar, haqqi qolmadi! O'z qavmiga ozor yetkazgan baraka topmaydi, chol zinaga horg'in cho'kar ekan, Qodirxo'ja angladiki, otasining unga aytadigan so'zi tugadi. Umr bo'yiz zar yiqqan, tillo yiqqan odam nechun bugun yo'qtogan mol-dunyosiga achinmaydi, yurt deydi, qavm deydi, qaddi tik, yuragida g'elayon... Qodirxo'ja ostona hatlab ko'chaga otilarkan, ushbu mulohaza yuragini o'tdek kuydirdi.

Fayzullaga havasmand o'sgan Qodirxo'ja dastlab islohottalab "Yosh buxoroliklar"ga xayrixoh, so'ngra firqaning Buxoroda islohot o'tkazish loyihasi bilan tanishib, loyihaning yer-suv, harb va moliya ishlari, maorif va nozirlar kengashi kabi bo'limlarini ma'qullagan, bu haqida do'sti Fayzullaga ham bildirgan edi.

U shaharning xarobaga aylangan ko'chalaridan o'tib borarkan, shunday o'ylardi: "Yaqingacha Fayzullani meningdek do'stlari ko'p edi, birin-ketin tarqab ketdik, ajrashdik, u esa ahdidan qaytmadi. Nechoch men inqilobchi bo'lmadim, xudo asradimi, jur'atim yetmadimi yo uningdek zamondan o'zib yasholmadimmi?" Qodirxo'ja shunday o'ylarkan, barcha niyat maslaklarining chilparchin sinishi teskari aksidan o'ziga kelolmasdi.

Katta minora va masjid atrofidan uzoq aylanib yurdi. Qoraygan g'isht, tuproq uyumlari qabristonni yodga soladi. Hafta oldin shaharning eng obod, fayzli manzili hisoblanmish bu aziz joylarda besh-oltitadan bo'lib qizil askarlar turar, ular xarobalarni qo'riqlashayotgandek tevarakni ziyrak kuzatishar, yarador minoraga hech kimni yaqinlashtirmas edilar.

"Qay bir gunohing uchun bag'ringni to'pga tutdilar ey, bobo minor?! Qodirxo'janing bag'ri xun bo'ldi, ko'zlar yoshga to'ldi, yutindi, ammo kiprik qoqmadi. Kuchga to'lgan, do'st-dushmanning farqiga borgan erkak yig'lamaydi, yo'q, zinhor yig'lamaydi. O'zingni tut Qodirxo'ja, chaqirilmagan mehmonlar yonida past ketma, ularga aytadigan so'zing bo'lsa, yig'lamay, qo'rwmay ayt, toki ular seni shu tuproqning farzandi, egasi ekanligingni bilishsin! Bir o'q bilan, o'n o'q bilan qulamagan minoradan uyal, u sendan madad emas, nomus kutadi... Qani endi Fayzullani tezroq topolsam, axir u mendan, Amirdan-da Buxoroni ortiq sevardi, hammamizdan ortiq sevardi. Amirga taxt meros bo'lsa, bizga Vatan, Buxoro merosmasmidi?..."

Mushtalarini tugib, askarlarga yaqinlasharkan, qulog'iga begona ruscha so'zlar chalindi:

Stoy!

Kuda ti, sart?

Po moemu on bay!

Amirning qarindoshimikan, otamiz! askarlar birin-ketin girdini o'rabb olishdi. Qodirxo'ja o'rtada to'xtab qoldi.

"Otamiz", dedimi? u bir xil kiyangan askarlarga razm solarkan, o'zbekcha so'zlagan yoshgina yigitga tikilib qoldi. Bexos otasining: "O'g'lim, mening qochadigan gunohim yuq", degan so'zlarini eslatdi. U otishga ishqiboz askarga yaqinroq borib:

Qochmaganni, qo'rwmaganni otasizmi, yigit?! dedi kinoya bilan. Qo'yingchi, birodar, o'zlar kim bo'ladi, sarpolar qulluq bo'lsin, xo'p yarashibdi! Sizga yarog' tutganlar adashmabdi, barakalla, oting meni, nega qarab turibsiz, kamlik qilsa, ana, Minorayi kalonni oting, qulating, nega qarab turibsizlar?!

Askar bola qilt etmay:

Men qizil askarman, inqilob qo'riqchisi, o'zingiz kimsiz, hujjat?! dedi jiddiy.

Hujjat sizda bo'ladi, qizil yigit, men buxorolikman, buxorolik Qodirxo'ja! Meni kattangizga boshlang, aytadigan gapim bor.

Kattamiz shtabda, o'rtoq Frunze nihoyatda band, u sizni qabul qilmaydi, gapingiz bo'lsa, marhamat, o'rtoq komissarga aytin, dedi u chekkarokda nopsisand qarab turgan mallasoch kishini ko'rsatib.

"Yo rab, otam bashoratchi ekan, "Endi qismatingiz og'ir kechadi, o'g'lim", deb hozirgina aytmaganmidilar? Nohotki endi gapiradigan so'zimga, bosadigan qadamimga shulardan ijozat so'rasam? Buxoroning qo'lidan ketgani rostga o'xshaydi. Yo, Amiri a'zam, qadringizga yetmabmizku, biz g'ofil bandalarni shayton yo'lidan ozdirmish, mana oqibat, mana inqilob!"

Bu orada askar yigit komissarning so'zlarini Qodirxo'jaga yetkazishga shoshildi:

O'zingizni tanishtiring, o'rtoq grajdanan, taqiqlangan zonaga ne maqsadda kirdingiz?

Boya aytdimku, nega anglamaysiz, buxorolik Qodirxo'jaman, do'stim Fayzullada ishim bor. Uchrashmoqchiman.

Askar uning so'zini komissarga yetkazdi. Komissar chirt etib yerga tufurarkan, nimalardir dedi, asabiylashdi. So'ng qizil askar boshlig'ining so'zini shunday yetkazdi:

O'rtoq komissar sizga ishonmaydi, u deydi, duch kelgan buxorolik o'zini Fayzulla Xo'jaevga do'st deb tanishtiradi, bo'limgan gap bu. Sizlar uni yomon ko'rasiz, siz feodallardan uni himoya qilish bizning burchimiz. Xo'jaev Buxoro inqilobining kaliti, u bizga kerak. Tushundingizmi? Endi biz bilan yurasiz, shaxsingizni aniqlash lozim.

Chig'iriqdan o'tasan deng, menga ishonmaysizmi, to'g'ri qilasiz, begona yurtning shohi gadosi-da bir, ishonmanglar, ishonmanglar menga!

Grajdinin Qodirxo'ja, nega unday deysiz, Buxoro bizniki, biz uni ozod qildik, yot qo'llardan, manfur amirdan ozod etdik, yashasin Inqilob! Yoki siz bizga qarshimisiz, xato qilasiz, sizning o'rningizda men bo'lganimda mana bu, eski tuzum sarqiti amirning soyasi ajal minorasi hisoblanmish balandlikka chiqib "Yashasin inqilob!", deb jar solardim.

E, shunday deng, ajal minorasi deb nomladinglarmi, yo'q, imyon minorasi bu, sizlar kelguncha minorada so'fi azon aytgan, barcha mo'min-musulmonni e'tiqodga boshlagan, uning so'ziga hech kim e'tibor bermadi.

O'ziga yarashiqli kiyim kiygan Qodirxo'jani o'rtaga olib ketisharkan, yonidagi mallasoch askar cho'ntagiga qo'l suqdi:

Tilla bar? Zoloto, zoloto?

* * *

...Frunze askarlarining muvaqqat shtabi Amir Olimxon Arkiga joylashgach, inqilob uchun xavfli sanalgan har bir kishining taqdiri shu joyda hal etila boshlandi. Gumondorlar guruhlarga bo'linib, hukmdorga yaqinlar Amir xonadoni bilan yuzlashtirish uchun tutqunlikda saqlanardi. Asosiy shtab esa Kogon temir yo'li stantsiyasida. Qizil askarlar Qodirxo'jani Arkka sudrashgan paytda Fayzulla shahardan chetda Kogonda o'zi uchun ajratilgan vagonda yolg'iz edi. Frunze uning Buxoroda turishini ma'qul topmadni, suiqasd uyuştirishlarini ro'kach qilib, vaqtinchalik maxsus vagonda yashashini maslahat (aslida buyruq) berdi. Frunze ushbu tadbiри bilan ikki vazifani ado etdi: birinchisi, Xo'jaevning chetda turishi shaharda o'z istagicha tintuv o'tkazish, xohlagan odamni qarshiliksiz qamash, otish har burchida xazina yashirilgan Buxoro boyliklarini ruxsatsiz yig'ish imkonini berdi; ikkinchisi, inqilob kurashchisining hayotini kafillikka olib, qizil armiyaning sadoqatini namoyish etdi.

Xar ikki tadbirni manfaat asoslar, manfaat oqlar, shu bois qarshilikka o'rın yo'q edi.

Kecha-kunduz qo'riqlanayotgan vagonlarda tinimsiz tilla yuklanar, arava, foytunlar uzlusiz qimmatbaho buyumlar tashir, inqilobning dastlabki hosilini Buxorodan Kogonga zavq-shavq bilan yig'ishardi.

Fayzulla Xo'jaev ilk kunlardanoq, savdogar otasidan meros qolgan jamiki boyligini inqilob g'alabasi uchun ixtiyoriy topshirdi. Aytish mumkinki, bu borada u shaxsiy namuna ko'rsatdi. Uningcha, e'tiqod sinovining bundan bo'lak ishonchli usuli yo'q edi. Uzoq muddat Buxoroning mustaqil, rivojlangan tenglik va adolatlilik qonunlar ustivorligi asosida qurilgan davlat bo'lishi uchun kurashgan ekan, bunday ulug' maqsad uchun nainki shaxsiy mulk boylik, jondan kechishga ham tayyor edi u.

Inqilob qurbonsiz bo'lmas! bu shior davrning nafasi, jamiki yo'qotilgan, boy berilgan boylik, hatto to'kilgan qon o'rnini bosishga arzirli taskinbaxsh mezon edi. U har bir qadamini shu mezon bilan o'lchar, ikkilanmasdi.

Qarshi darvozasi portlatildi. Katta minora to'pga tutildi. Ark yarim vayronaga aylandi, masjidlar ustiga bomba yog'di, samolyot neligin ko'rмаган, bilmagan Buxoro ahli qurban bo'ldi, qirildi. Hammasiga guvoh: shafqatsiz rejaning ishtirokchisi u. "G'aflat bosgan Olimxon Buxoro taqdirini o'ylaganida, avvalo, harb quvvatini oshirmasmidi, o'zganing himoyasiga ishongan podshoh qanday qilib o'z yurtida erkin bo'lsin, bugun bo'lmasa ertaga, u albatta, Buxoroni topshirmsasmidi?"

Yolg'izlikda o'tayotgan har lahma Fayzullaga tinchlik bermas, o'zicha turli sabablar topardi: "Agar u bizning islohotlarni qabul qilib, amalga oshirganida, bugun Buxoro talanmasdi, ammo u qo'rwdi, o'zidan qo'rwdi, taxtdan qo'rwdi. Olimxon uzoqni ko'rolmadi, o'ziga ishondi, pilta miltiq bilan qurollangan qari lashkarlariga ishondi. Taqdir men taraf bo'lib, rus quroli bilan uni yenggan ekanman, qismatdan tonmayman! Otadan davlat qoladi, mol qoladi. Lekin unga mamlakat qoldi, Buxoro qoldi, u shunga loyiqmidi? Olimxon Buxoroni boshqarolmadi..."

Buxoro talanar, Buxoro yonar, u esa o'z-o'zi bilan xayol talashar, o'tgan voqealar bo'lak imkon bermasdi. Ming to'qqiz yuz o'n sakkizinchchi yilgi Kolesov jangidan so'ng uning eng katta imkonim jim turish edi. Bir marta ishonchni yo'qotgan mahalliy inqilobchi ikkinchi bor qizil armiyaning madadidan umidini uzishi kerak. Lekin unga ishoni shdi. Fayzulla bo'lgani uchun, kerak bo'lgani uchun ishoni shdi...

U shunday o'ylasa-da, so'nggi ikki-uch kunlik voqealar silsilasi, bir-yarim yoniga kelib ketayotgan yaqinlari, maslakdoshlar, qarindoshlarining ochiq-oydin noroziliklari bir daqiqa bo'lsin tinchlik bermasdi. Rost, qizillarning madadi qimmatga tushdi, lekii na chora, endi ortga yo'l yo'q, ko'priklar sindi.

Nihoyat, vagon pardasini surib atrofnı kuzatdi: askarlar terlab-pishib ahdu jahd bilan yelkasiga qop tashir, birin-ketin to'lgan vagonlar eshigi tanbalanib, soqchilar soni ortib borardi. "Agar shu bilan qutulsam, shu bilan ularning qadami Buxorodan uzilsa, deya o'yldi u, bilingki, Buxoro o'zining ikkinchi umrini boshlaydi, biz yangi, mustaqil davlatning poydevoriga g'isht qo'ygan bo'lamic..." Ammo bunga hali erta, o'y-xayollari tor vagonda, askar qo'riqchiligidan, Buxorodan chetda kechayotgan orzu ekanligini bilmasdi. Buxoro voqealar shu qadar shiddat bilan kechdiki, endi u temir go'shasida tinch turolmas, shoshilinch rejalar tuzar, yon daftariga qaydlar yozar, kimlar bilandir xayolan bahslashar, vazifalar taqsimlar, xullas, vaqt unga, u vaqtga tinchlik bermasdi.

Noxos eshik taqillab, soqchi ko'rindi:

Sizni so'rab kelishdi.

Kim!

Do'sti Qodirxo'jaman, deydi, ruxsatnomasi bor.

Kirsin.

Qodirxo'ja vagonga kirganida Fayzulla yarim surilgan parda yonida turib, bir mahallada ulg'aygan bolalikdag'i o'rtog'i haqida o'yldi: "Kelgani yaxshi bo'ldi, u meni tushunadi, o'tgan ginalarni unutamiz, endi bizni ish birlashtirsin, Buxoro birlashtirsin". Do'sti Qodirxo'ja Fayzulla kutganchalik quchoq ochmadi, hayajonlanmadni, begona, butunlay yot bir kishiga ko'zi tushgandek ajablanib qarab turdi. Bir daqiqalik og'ir sukunat Fayzullaning yuragiga toshdek qadaldi. "Nega meni tushunishmaydi, nechun menga bunday qaraydilar, hammaning qo'li mening yoqamda, axir menga ham suyanchiq kerak, qani o'sha mard, atrofimda ustoz Fitratdan boshqa hech kim qolmadni!"

Jimlikii Fayzulla buzdi:

Do'stim, toqating yetsa, yana bir dam jim tur, gapirma. Men bir oydinlik tilayman, ko'nglim esa kun sayin qora, qop-qora: kuching yetsa, menga qo'lingni uzat, madad ber, qadamim yorug'likka yetsin, u yog'ini o'zimga qo'y, albatta qaddimni tiklayman!

Qodirxo'ja hamon jim, o'sha sovuqqonlik ila qarab turaverdi.

"Bir dunyo kek bilan kelgan, yaxshi hamki quroli yuq..."

Sen boshqa yurtning odamisan, sokin tilga kirdi Qodirxo'ja, tanimayman seni, yolg'onmi? Atrofingda soqchilar, ortingda yuk to'la vagonlar! Sen men uchun guyo Buxoroga kelgansanu savdongni pishitib, yana to'lib-toshib yurtingga ketayotgandeksan!

Qayoqqa jo'natayapsan bu oltinlarni?! Buxoroga qasding bormidi?! Yana qo'l cho'z deysan, madad ber deysan, sen shaytonga qo'l uzatding, senga shayton madad bersin! Otangdan, mol-davlatingdan, hammamizdan kechib topgan taxtingga tupurdim! Nima qilib turibsan bu yerda bekinib, olib chiq temir taxtingni, Arkka o'rnat! Olimxon ketdi, endi u yo'q!

Buxoroga qasding bormidi! Fayzulla Qodirxo'janing so'zini takrorladi. Kecha amakim ham xuddi shu gapni aytdi. Azobku bu da'veni eshitish, tushuntirish azob, chidash azob. Men senlarning qay biring bilan aytib-eshitay! Shu kungacha yolg'iz edim, nahotki, yana yolg'izlik qismatim bo'lsa? Bunaqada men kim bilan Davlat quraman?! Yo'q, senlar ginani bilasan, xatoni ko'rasan, ammo suyanchiq bo'lomaysanlar!

Gapirma, senga suyanchiq bo'lishdan xudo asrasin! Yurtini kofirga topshirgan odamni men tushunmayman!

Mening o'z rejam, maqsadim bor. Senlar yurtni emas, o'z moling, joningni o'ylaysan! Bugun bo'lmasa ertaga meni xalq tushunadi.

This is not registered version of TotalDocConverter
Olimxon dan qayd qilinga shukur qida, ROZPAPROF

Olimxonni sen qanchalik bilsang, men ham uni shunchalik bilardim. Men taxt havasidan uzoqda edim. Tinchgina oilam, kasb-korim, yuragimda shukronam bor edi hammasini to'zitding! Koski to'zg'igan bir men bo'lsm? Ayt! Da'voga arzimaydimi bular?! Javob berasan, hammasiga javob berasan, yurtning da'vosi yelkangda turibdi, ko'zlarin ko'r sening ko'rmaysan, qulqlaring kar sening eshitmaysan!

Mutelik, bo'shanglik Fayzullaning tabiatiga yot edi. Maqsadga erishishning qonli yo'li, vayronagarchilik, ko'plab yaqinlaridan ajralish uni yanada teranroq o'yplashga, Buxoro bilan bog'liq har bir katta-kichik voqeani qayta-qayta tafakkur mezonidan o'tkazishga majbur qilardi. Shafqatsiz vaqt hafta ichida o'z hukmini o'qigan, shikoyatga o'ren yo'q edi. Endi buyog'iga puxtarop rejalar tuzish, yon berish, pinhona kurashishdan o'zga chora yo'q. Aldandim, desinmi, xato qildim, desinmi, uzr so'rasinmi bundan ne foyda? Maqsadi aniq ekan, qaytmaydi, qaysar taqdir unga yon bosmaguncha kurashaveradi.

Cho'ntagimdagi so'nggi aqchamni ham tortib olishdi, Qodirxo'ja hamon tik turganicha gapirardi. Bu qadar pastkashlik?! Ishongan tog'ing shularmidi? Qaroqchiku bular, gadoku bular! Tunda otamni qon qaqqashitib, ko'zi tushgan odamdan tilla talab qilishadi! Kechalari uyma-uy izg'ib o'lpon yig'ishadi... Qarg'ishga qolding Fayzulla, qo'lingdan kelsa itlaringni bog'la. Xalqni talagani yetar, sendan qizillar minnatdor bo'lishsa, shu yog'i ham yetib ortadi. Amirni qulatishta yetgulik, balki ortiqroq xizmat haqi to'lading! Endi ayt, bizga tegmasin, beva-bechoraning ohi senga yetmasa, Ollohga yetadi!

Qodirxo'ja! Fayzulla uning kiftidan changalladi. Xotinqarg'ish so'zlarindan to'ydin! Yaxshilab eshitib ol: Buxoro shu kungacha vatanim edi, endi esa qismatimga aylandi! Bilasan, qismatdan hech kim kecholmagay. Agar taqdir ustimdan kulmasa, Buxoroni qaytadan quraman. Sen hali Fayzullani bilmaysan!..

Sergak soqchi tahidli ovozdan hushyor tortib, vagonga otilib kirdi. Fayzulla mallasoch askarga zo'rma-zo'raki jilmayib "Hammasi joyida, chiqib tur", dedi ruschalab.

Kutilmaganda askarning paydo bo'lishi har ikkisinida hushyor torttirdi. Fayzulla uchun ichki va tashqi tartib o'rnatilgan u eng yaqini bilan ham vagonda uzoq gaplasholmas, kim bilan nima haqida suhbatlashgani uchun hisob berishga majbur edi. Guvohlarsiz suhabat o'ziga choh qazishga teng, buni anglamaslikning iloji yo'q, to shu kungacha asrab-avaylab, jonu taniga qalqon bo'lib kelgan Kogon stantsiyasidan kunma-kun uzoqlashayapti. Rost, hayotini asrash vajida temir qutida, soqchilar qo'riqchiligidan yotar ekan, ko'ngliga bostirib kirgan begonalik hissi kun sayin kattalashib, ulkan to'siqqa aylanib borayapti.

U vagon bo'y lab asta yura boshladi, butkul tinchini yo'qotdi. Biri-biridan chalkash, xavotirli o'ylar ta'sirida vagondan otilib chiqqisi keldi. Uning chorasiz paytlari ko'p bo'lgan, lekin bugungidek o'tgan voqealarning barcha malomati yig'ilib boshidan yog'ilmagan edi. Nimalar bo'layapti o'zi? Bari uning ixtiyororisiz kechdi, u biladiki, uning xohishidan-da shiddatli, qudratli bir kuch Buxoroga bostirib kirdi. Frunze lashkarlarining qadami yetgan Buxoroga hammadan ko'proq u mas'ul emasmidi?..

Bir muddat jimlikda kechgan fursat soqchilarni yanada hushyorlikka chorladi. Bu gal ular vagon panjarasidan poylashdi, hatto birisi poylaganini ataylab yashirmadi, tirjayib, ochiq-oydin ichkariga razm soldi.

Kimni poylashayapti, so'radi Qodirxo'ja, menimi yo...

Meni poylashayapti, ularga men kerakman.

Yo'q, xato qilasan, Fayzulla, ularga sen emas, Buxoro kerak! Holingni ko'rib hammasini angladim, endi qo'lingdan bir ish kelishi mushkul, sen allaqachon bolshavoyning aravasiga mingansan, o'z ixtiyoringga tushmaysan, tusholmaysan, jo'shib-jo'shib qo'shig'in aytasan, aytmasang aytiradi!

Fayzulla uniig so'zlarini eshitmagandek, xotirjam ko'zlariga tikildi:

Dustu birodarlarga ayt, Buxoroni tashlab ketishmasin, hali bir-birimizga kerak bo'lamiz. Yanglish fursat tez o'tadi, menga ishoninglar Qodirxo'ja. Kel, endi xayrlashamiz do'stim.

Ketaman, dedi Qodirxo'ja orqaga tislani, lekin senga ishonmayman, Fayzulla, ishonmayman! Ollohga qasamki, baringdan o'ch olaman, toki tirik ekanman, o'ch olaman...

U eshikni taraqlatib yopdi.

Bir muddat o'tgach, ketma-ket o'q ovozi eshitildi. Qodirxo'ja chuqur xandaqda qonga belanib yotar ekan, Fayzullaning so'nggi so'zlarini esladi: "...Yanglish fursat tez o'tadi, menga ishoninglar, Qodirxo'ja..." U ko'zlarini katta ochib, chidam bilan xo'rsindi. Ko'zi elas-elash tepasida belkurak ko'targan qizil askarga tushdi.

U hali joni chiqmagan tirik jasadini tuproqqa qorishtirayotganlarini tomosha qilib yotdi, ko'zlarini yummadi, yumolmadi. Boshi uzra osmonda elas-elash yarador Katta minora akslandi. Bir o'q bilan, o'n o'q bilan qulamagan minoradan madad istagandek o'ng qo'lini cho'zmoqchi bo'lib talpindi-yu shu lahma yelkasiga tosh urildi, yuziga qum tushdi, ko'zlarini uni zulmat qa'rige tortib ketdi.